

## YUSUF HOS HOJIBNING “QUTADG’U BILIG” DOSTONIDAGI PAND-NASIHLARNING O’QUVCHILAR TARBIYASIGA TA’SIRI

*Angren shahar 42-umumiy o‘rta ta’lim maktabi ona tili va adabiyot fani*

*o‘qituvchisi*

***Ergashova Dilfuza Abdimominovna***

**Annotatsiya:** Ushbu maqola o‘quvchilarga, umuman, har bir shaxsga lozim bo‘lgan didaktik yo‘nalishda yaratilgan “Qutadg‘u bilig” asarining tarbiyaviy ahamiyati haqida, shuningdek, o‘quvchilarga uning ta’siri tahlil etiladi.

**Kalit so‘zlar:** Ta’lim, tarbiya, oila, ilm, nasihat, komil inson, ma’rifat, ezgulik, til, amaldor, siyosat, o‘quvchilar tarbiyasi

Hozirgi zamon ta’lim-tarbiyasi, istiqlol mafkurasi ana shu merosdan oziqlansa, uning eng yaxshi sahifalarini, qoidalarini qabul qilsa, o‘z oldiga qo‘ygan maqsad-vazifalari sharaf bilan bajarishi mumkin. Chunki ular odobnomasi, ibratnomasi oilada bolalarni har tomonlama tarbiyalash, kamolga yetkazish, ma’naviyatimizning ustivor iymon- e’tiqodlarimizning butun bo‘lishligini, qadrlı qadriyatlarimizning qadrlanishi garovidir. 2018-yilda 11-sinflar uchun nashr etilgan adabiyot darsligida ajdodimiz Yusuf Hos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridan namunalar keltirilgan. “Qutadg‘u bilig” - baxt va saodatga eltuvchi bilim, ta’lim degan ma’noni bildiradi. Demak, asar nomidan ham uning pand-nasixatlari, ta’lim-tarbiyaga oid, har tomonlama komil insonni tarbiyalaydigan yetuk ma’rifiy asar ekanligi yaqqol ko‘rinib turibdi. “Qutadg‘u bilig” – XI asr so‘z san’atining nodir namunasi bo‘lib, unda o‘z davrining ilg‘or ijtimoiy-siyosiy, ma’naviyaxloqiy masalalari badiiy talqin qilingan, turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, ilm-fani, urfodat va an‘analari, turmush tarzi, qadriyatlari xususida batafsil ma’lumot berilgan.

Yusuf Xos Hojibning uqtirishicha, har bir kishi jamiyatga munosib bo‘lib kamol topmog‘i kerak. Buning uchun, u tug‘ilgan kundan boshlab zarur tarbiyani olmog‘i lozim. Farzandlar tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog‘i shart. Shundagina

ularning noo‘rin xatti-harakatlariga berilishining oldi olinadi. Yusuf Xos Hojibning mazkur asari insonni har tomonlama kamolga yetkazishning barcha masalalari o‘zining badiiy ifodasini topgan yirik ta’limiy-axloqiy dostonidir. Olim insonni kamolga yetishi uchun quyidagilarni nazarda tutadi: 1. Aqliy kamolot-bilim va zakovat. O‘quvli bo‘lish. 2. Axloqiy kamolot. 3. Jismoniy kamolot. Yusuf Xos Hojib ta’lim va tarbiyaning uzviy bog‘liq holda bo‘lishini tavsiya etadi, o‘g‘il bolalarning bir necha san’at turini va hunarlarni tugal o‘rganmog‘i lozimligini ta’kidlaydi, bu –ularning kelajak hayotlari jamiyat rivoji uchun kerak. Yusuf Xos Hojib aqliy tarbiyaning baland mavqe tutishini eslatadi. Adib tarbiyaning barcha turlari o‘zaro bilan uyg‘un bo‘lishini talab etadi. Shundagina insonning aqlan barkamol, jismonan yetuk, axloqiy, ma’naviy boy bo‘lishiga ishonadi. Farzandlarga turli bilim va hunarlar o‘rgatish, ularni go‘zal axloqli qilib voyaga yetkazish ota – onaning burchidir. Yusuf Xos Hojib tarbiyada kattalar namunasi, ajdodlar tarbiyasi alohida ahamiyatga ega ekanini ta’kidlaydi. Asarda ilgari surilgan axloqiy xislatlar mohiyatining to‘laqonli ochib berilishi olimning ta’lim-tarbiya, axloq masalalarini qay darajada chuqur bilganligidan dalolat beradi: insoniylik, rostgo‘ylik, to‘g‘rilik, soflik, mehr-muhabbat, vafo, shafqat, muruvvat, insof, adolat, ishonch, sadoqat, xushmuomalalik, shirinso‘zlik, saxovat, mardlik, himmatlilik, tavoze, hurmat va ehtirom, tadbirkorlik. Aql zakovat, halollik, ezgulik kabi xislatlar ulug‘lanadi, ularga yolg‘onchilik, noinsoflik, fisqu fasod, bevafoqlik, mehirsizlik, dag‘allik, qo‘pollik, baxillik, nomardlik, quvlik, hurmatsizlik, nodonlik, johillik, haromxo‘rlik, ochko‘zlik kabi xislatlarni qiyoslab, ezgu xislatlarning yaxshi oqibatlari va salbiy xususiyatlarning yomon oqibatlarini misollar vositasida ishonarli qilib bayon etadi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida inson kamoloti masalasi markaziy masala bo‘lib hisoblanadi. Mazkur asarda insonning jamiyat va hayotda tutgan o‘rni, burch va vazifalari haqidagi muammolar o‘ziga xos tarzda bayon etiladi. Buyuk mutafakkir Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” kitobining an’anaviy boshlamasidan keyin oq insonning haqiqiy baxti bilimda ekanligini bayon etadi. U ilm, zakovatning ahamiyati haqida fikr

yuritish bilan birga unga alohida boblar ham bag‘ishlangan. Lekin olim faqat ilm-ma’rifatning ahamiyatini ko‘rsatibgina qolmaydi, u bilim va zakovatning amaliyotdagi o‘rnini ham yoritadi. Adib bilimli buyuk, uquvni ulug‘ deb ta’riflaydi. Chunki, zakovatli inson ulug‘ bo‘ladi, bilimli kishi buyuk bo‘ladi, deb ilmi kishilarni asl toifadagi kishilarga qo‘shadi. Olim ezgu ishlarning barchasi ilm tufayli amalga oshirilishini aytadi. O‘sha davridayoq olim “Bilim hatto osmon sari yo‘l ochur” deb bashorat qiladi. U dunyoda odam paydo bo‘libdiki, faqat bilimli kishilargina ezgu ish qilib, adolatli siyosat yurgizib kelgan, ana shu bilim va zakovati tufayli kishilar razolatdan poklanganligini ta’riflaydi. Hatto hukmdorlar ham yurti, davlatni aql, ilm, zakovat bilan idora etsa, el-yurt farovon bo‘ladi, to‘q va tinch hayot kechiradi, deydi. U kuch va qurolni aql va bilimdan keyingi ikkinchi o‘ringa qo‘yadi. Sechu (ya’ni har yerda ma’lum xudo) insonni yaratti, tanladi, Unga hunar, bilim va uquv berdi. Unga ko‘ngil (ya’ni aql) berdi, tilini yo‘riq (ravon) qildi, Andisha, xulq hamda go‘zal fe‘l ato qildi, Bilim berdi, (shu tufayli) inson bu kun ulug‘likka erishdi. Uquv berdi, so‘ng (shu tufayli berk) tugunlar yozildi. “Qutadg‘u bilig”da yana jumboqlarni yechish usullaridan ham foydalanilgan. Bu uslub o‘quvchini asarga qiziqtiradi, uni o‘qimishli qiladi. Hozirgi davrda bu muammoli ta’lim deb yuritiladi. Ammo tarbiya va ta’lim merosimizda jumboq-muammoli ta’lim o‘ziga xos xususiyatga ega. Masalan, asardagi Kuntug‘mish (Elig) bilan Oyto‘ldi munozarasini olaylik. Bu munozarada olim quyidagi fikrni ilgari suradi: Elig Oyto‘ldiga o‘rin berganda o‘tirmagani, “xon yonida menga o‘rin yo‘q”, - degan edi. Yerga koptok qo‘ygani va unga o‘tirgani bilan Oyto‘ldi - davlat koptok kabi barqaror emas, bir joyda turmaydi, degani. Elig boqqanda ko‘zini yumib olgani-davlat ham ko‘r kishi kabi bo‘ladi, kimga ilashsa, unga qattiq yopishib oladi, degan edi. Yuzini yashirgani esa, barcha qilmishlarim - ya’ni davlat jafo, unga ishonma, degani, deb kishi davlat va baxtga quvonib ketmasligi, ulardan quvonib, ortiqcha g‘ururlanib ketmay, aksincha, o‘zini ehtiyot qilishi, yig‘ilgan narsalarni me’yorida sarflashi, bexud bo‘lib, ichkilikka berilmasligi, narsalarni sovrmasligi kerak deb ko‘rsatadi.

Demak, Yusuf Xos Hojibning mazkur asari insonni har tomonlama kamolga yetkazishda yirik ta'limiy-axloqiy asardir. Shuning uchun ham bu asar o'zining ilmiy, ma'rifiy, tarbiyaviy ahamiyatini shu paytgacha saqlab kelmoqda. Yuqoridagi fikrlarni tahlil etadigan bo'lsak, o'quvchilarga davlat, adolat, hukmdorlik sirlari haqida pand-nasihatlar, ibratli hikoyalar, odob-ahloq qoidalari tushuntiriladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Ахметова А.К. Педагогические взгляды Юсуфа Хас Хаджиба Баласагунского (по поэме «Кутадгу билиг»): Автореф... канд. пед. наук. – Т, 1990. –
2. Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожибнинг «Кутадғу билиг» асари. – Т.: Ўзбекистон, 1991
3. Тахиров Курбанбай Хайитбоевич Юсуф Хос Ҳожибнинг сиёсийҳуқуқий қарашлари.Юридик фанлар номзодлик диссертация – Автореферат, Тошкент – 2011.
4. Boboev H., G'ofurov Z. O'zbekistonda siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy ta'limotlar taraqqiyoti. – Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2001